



GLOBALLASHUV DAVRIDA O‘ZBEK TEATRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Rashidov Mahmud Rasulovich,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
“Estrada va ommaviy tomoshalar san‘ati”
kafedrası professori*

Annotatsiya: Hozirda Respublika teatrlarida sahnalashtirilayotgan spektakllarni ommaga havola qilishda uning mazmun mohiyatiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Davlatimiz tomonidan davr ruhini anglash, milliy mafkura va milliy qadriyatlarimizni teatr sahnasida aks ettirishga e‘tibor kuchaydi. Ushbu maqolada globallashuv davrida o‘zbek teatrining o‘ziga xos xususiyatlari va zamonaviy tendensiyalar xususida tahliliy fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Milliy teatr, estrada, rejissor, aktyor, ma‘naviy g‘oya, spektakl, obraz, teatrshunoslik, globallashuv.

ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: Особое внимание уделено содержанию пьес, идущих в настоящее время в театрах республики. Со стороны нашего государства возросло внимание к пониманию духа времени, отражению на сцене театра нашей национальной идеологии и национальных ценностей. В данной статье представлено аналитическое мнение об особенностях узбекского театра в эпоху глобализации и современных тенденциях.

Ключевые слова: Национальный театр, эстрада, режиссёр, актёр, духовная идея, спектакль, образ, театроведение, глобализация.

THE PECULIARITIES OF UZBEK THEATER IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Annotation: Particular attention is paid to the content of plays currently performed in theaters of the republic. Our state has increased its attention to understanding the spirit of the times, reflecting our national ideology and national values on the theater stage. This article presents an analytical opinion about the features of the Uzbek theater in the era of globalization and modern trends.

Key words: National theater, stage, director, actor, godly idea, performance, image, theater studies, globalization.

KIRISH. Albatta bugungi kunda har bir teatr zamonaviy, innovatsion boshqaruv uslublariga ehtiyoj sezmoqda, zero hozirgi davrda teatrlarimizning zamonaviy boshqaruv uslublaridan va modellaridan foydalanib faoliyat yuritishi muhim. Bunda katta mas’uliyat teatr direktorida bo‘lib, u o‘z teatrini, teatr jamoasini, moddiy texnik bazani, kadrlar masalasini va tijoratlashtirish kabi muhim jihatlariga jiddiy e’tibor berishi kerak. Bularning barchasi teatrning bevosita kelajagiga ta’sir qiluvchi omillaridir.

2024-yil 22-noyabr kuni Muhtaram Prezidentimizning “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda teatrlar boshqaruvi bilan bog‘liq ko‘plab muammoli masalalarga yechim berildi va ba’zi teatrlarning experiment tariqasida mustaqil faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratildi. Bu yil davomida namoyish etilgan sahna asarlariga tomoshabinlarning munosabatlari asosida shakllantirilishi belgilandi. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki ana endi har bir teatr faoliyatini yanada rivojlantirishi, spektakllarning saviyasiga jiddiy e’tibor berishi talab etiladi.

Masalan: 2025-yil 1-yanvardan boshlab 2026-yil 31-dekabrga qadar huquqiy eksperiment tariqasida O‘zbekiston davlat yoshlar teatri hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatriga moliyaviy, ijodiy va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish vakolati berildi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ijodiy jarayonlarga mahalliy va xorijiy yuqori malakali ijodkor va mutaxassislar ushbu teatrlar tomonidan jalb etilishi, teatrlar faoliyati bilan bog‘liq davlat xaridlari ular faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi, teatrlar direktori, badiiy rahbari, bosh rejissyori faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanishi, shtat lavozimlaridan oqilona foydalanish holatini o‘rganish, shuningdek, badiiy, boshqaruv va yordamchi xodimlar attestatsiyadan o‘tkazilishi hamda ushbu teatrlar tomonidan namoyish etiladigan spektakllari soni, tomoshabinlarni jalb qilish hamda mablag‘ ishlab topish rejasi 2024-yildagi ko‘rsatkichlarni kamida 20 foizga oshirilgan holda bajarilishi qarorda alohida belgilandi.

Yangi qarorda 2025-yildan boshlab, O‘zbekiston teatr jamoalarining milliy reytingi tuzilishi hamda har yili 27-mart — Xalqaro teatr kunida e’lon qilinishi belgilandi. Teatr xodimlari milliy reytingga, shuningdek, Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadigan teatrlar ijodiy xodimlarining spektakl sahnalashtirish va ijro etish me’yorlariga muvofiq holda rag‘batlantiriladi; milliy reyting teatrlar va ularning ijodiy xodimlarining faoliyatini baholash hamda yil davomida namoyish etilgan sahna asarlariga tomoshabinlarning munosabatlari asosida shakllantiriladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Aksariyat teatrlarimizning repertuarlari g‘oyaviy-badiiy jihatdan nochor, ulardan o‘rin olgan spektakllarda bugungi kun nafasi, odamlarni o‘ylantirayotgan, hayajonga solayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar o‘z aksini topmayapti. Afsuski, teatrlarimiz ko‘proq maishiy mavzulardagi yengil-yelpi, bachkana asarlar, odamga na ma’naviy oziq, na estetik zavq beradigan tomoshalarini namoyish etishga o‘rganib qolgan” [2].

Mazkur tanqidiy mulohazalardan to‘g‘ri xulosa chiqarish, mavjud muammolarni bartaraf etish, o‘zbek teatrini yangi bosqichga olib chiqish sahna ijodkorlari zimmasidagi asosiy vazifaga aylandi.

NATIJA VA MUHOKAMA. 2023-yil Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz ma’naviy-ma’rifiy hayotimizning ko‘plab jabhalari qatori teatr san’atini rivojlantirish, sohaning istiqbolini belgilash bo‘yicha zarur xulosa va takliflarini bildirdi. Jumladan, Madaniyat vazirligiga teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish vazifasi topshirildi. Unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning xorij teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish singari vazifalar belgilandi. Korxona va muassasalarda oyning bir kunini “Teatr kuni” sifatida e’lon qilish va xodimlarning teatrga borishini yo‘lga qo‘yish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zbek teatri rivojlanishining hamma bosqichlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni teatrga ta’sirini anglash mumkin. Har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy qarashlari adabiyot va san’atda o‘z in’ikosini topadi. Mamlakatimizga Yevropa tipidagi professional teatr san’ati kirib kelganidan to hozirgacha bo‘lgan jarayonlarda sahna san’ati ijtimoiy-madaniy voqeliklar bilan uyg‘unlikda rivojlangani, hukumat va jamiyat tomonidan muayyan missiyalarni bajargani, davr va millat tafakkuri uchun zarur g‘oyalarni ilgari surganiga guvoh bo‘lamiz. Albatta, mafkuraviy jarayonlar va ijodiy erkinlik tushunchalari doim ham bir-biriga muvofiq kelmagan, ba’zi davrlarda siyosiy tuzumning teatrga bosimi, tazyiqi kuchaygan. Ammo shunday sharoitda ham teatr ijodkorlari badiiy-g‘oyaviy asosi mustahkam, abadiyatga daxldor sahna asarlari yaratish yo‘lida astoydil harakat qildilar. Teatrshunoslar M.Qodirov va S.Qodirova qayd etganidek, “Istiqlol davri qo‘g‘irchoq teatrlari uchun ham izlanish yillari bo‘ldi. Garchi davlat respublika Madaniyat ishlari vazirligi va mahalliy byudjet orqali qo‘g‘irchoq teatrlarini muayyan dotatsiya bilan ta’minlab turgan bo‘lsa-da, baribir har bir teatr ma’muriyati bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida homiylar topish va ijodiy ishlarni yangi tartibda olib borishga harakat qilib kelmoqda” [3].

Mustaqillik yillari Respublika qo‘g‘irchoq teatri (hozirgi O‘zbekiston davlat qo‘g‘irchoq teatri) da faol ijodiy jarayonlar kechdi. Teatr jamoasi bolalar uchun o‘zbek va jahon xalq ertaklari, dostonlar, afsonalar, rivoyatlar asosida rang-barang mavzu va janrdagi spektakllarni sahnalashtirdi. “Karvonsaroy”, “Uchar kovush”, “Oltin jo‘ja”, “Ali bobo va qirq qaroqchi”, “Hasan baxt izlaydi”, “Sirli nay”, “Sho‘x shaytonchalar”, “Ming bir kecha”, “Olovuddinning sehrli chirog‘i”, “Chodir jamol”, “No‘xat bola”, “Fotimaning sarguzashtlari”, “Qor malikasi”, “G‘ozcha” kabi spektakllar yosh tomoshabinlar tomonidan qizg‘in kutib olindi. Qolaversa, viloyatlardagi qo‘g‘irchoq teatrlarida ham o‘ziga xos ijodiy izlanishlar, yangi tajribalar amalga oshirildi.

Mustaqillik yillari O‘zbekiston xorij mamlakatlari bilan ijtimoiy-madaniy sohalarda integratsion aloqalarni kuchaytirdi. Xususan, teatr san’ati misolida oladigan bo‘lsak,

yurtimizning ko‘plab teatrlari xalqaro festivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi, o‘z spektakllari bilan gastrol safarlarida qatnashdi. Shuningdek, jahon teatr jamoalari ham yurtimizga gastrollar tashkil etdi, o‘zbek rejissyorlari xorijda, xorijlik rejissyorlar esa O‘zbekistonda spektakllar sahnalashtirish uchun taklif etildi. Bu o‘z navbatida san’atdagi ijodiy jarayonlarni rivojlantirishi bilan birga, millatlar o‘rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashga, xalqlar o‘rtasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, baynalminal g‘oyalarni targ‘ib qilishga ham xizmat qildi.

Ijtimoiy-madaniy aloqalarni xalqaro darajada rivojlantirish maqsadida bir nechta ko‘rik-festivallar o‘tkazildi. Respublikamiz teatrlarining rivojlanishi, jahonga chiqishi va xorij teatrlari bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishida “Navro‘z” mintaqaviy festivali alohida ahamiyat kasb etdi. Festival ilk bor O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston teatr arboblari uyushmasi tomonidan 1989-yilda tashkil etildi. Ta’kidlash o‘rinliki, har yili an’anaviy tarzda o‘tkazilgan mazkur festival Markaziy Osiyo mamlakatlarining yirik madaniy loyihasi sifatida qo‘shni xalqlar o‘rtasida umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ib qilish, do‘stlik-birodarlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Jumladan, festival 1988-yili-Oлмаota shahrida, 1989-yili Bishkekda, 1991-yili Dushanbeda, 1992-yili Toshkentda, 1993-yili Ashxobod shaharlarida yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur festivallarda O‘zbekiston teatrlari ham munosib ishtirok etib, yurtimiz sahna san’atini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga salmoqli hissa qo‘shishdi. Xususan, 1989-yili Bishkek shahrida o‘tkazilgan festivalda Farg‘ona viloyati musiqali drama teatrining “Temir xotin” (Sh.Boshbekov asari, rejissyor O.Salimov) spektakli “Gran-pri”ga sazovor bo‘ldi.

Bugungi globallashuv davrida yurtimizdagi teatrlarning aynan boshqaruv strukturasida ko‘plab muammolarga duch kelayotganligi va uning yechimini izlash masalariga alohida to‘htalib o‘tish lozim. Masalan: Direktorlarning boshqaruvga oid bilimlari va malakalari yetarli emas, kadrlar bilan bo‘g‘liq masalalar ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan, marketing masalasi judayam sust darajada, tijoratlashtirishni yanada rivojlantirish va xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda uni amaliyotga joriy qilish kabi masalalar muhim hisoblanadi. Teatrlar va uni boshqarayotgan rahbarlar – direktor, bosh rejissorlarning faoliyatini ijobiy baholash mumkin. Lekin o‘ylaymanki bu yetarli emas. To‘g‘ri har yili rejaga muvofiq ma’lum bir spektakllar sahnalashtiriladi, ammo statistik ma’lumotlarga ko‘ra teatrlarga yil davomida spektakl tomosha qilish uchun keluvchilar soni juda kam foizda. Joriy yilda chiqqan yangi 399-son qarorda aynan teatrlarning reytingi e’lon qilinishi borasidagi yangilik ham o‘ylaymanki teatrlarning sog‘lom raqobat asosida faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Katta reja va maqsadlarni o‘ylab shunga qarab intilish, tinmay izlanish kerak. Direktor teatrning moddiy texnik bazasini yaxshilash, yosh iste’dodli kadrlarni kashf qilish, tijoratlashtirish masalasini yo‘lga qo‘yish, gastrol safarlarini amalga oshirish kabi tashkiliy masalalarni hal etmog‘i kerak. Badiiy rahbar esa ijodiy tomondan teatr nufuzini oshirish, jamiyat va xalqimizga aynan bugungi kunda zarur bo‘layotgan, ma’naviy ozuqani berishga mos spektakllarni sahnalashtirish ustida o‘ylashi kerak.

XULOSA. Bugungi kunda teatr san’atini boshqarish faoliyati bilan maxsus shug‘ullanuvchi – teatr menejmenti yo‘nalishi paydo bo‘ldi. “Zero, bozor iqtisodiyoti sharoitida

zamonaviy teatr iqtisodiy boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi kuch – menejerga ehtiyoj sezishi esa kundek ayon.

Teatrning bozorga kirib borishini ta‘minlovchi, sog‘lom raqobat muhitini yaratuvchi, mahsulot yetishtirish va uni taklif qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan menejergina teatrning moliyaviy barqarorligini ta‘minlab, iqtisodiy salohiyatini yuksaltira olishini bugun hayotning o‘zi isbotlamoqda” [4]. Teatr menejeri bu – teatr boshqaruvchisi bo‘lib, teatr truppasi ishini tashkil qilish va boshqarishga qaratilgan turli funksiyalarni amalga oshiradi.

Sobiq Sovet tuzumi yillari O‘zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotining deyarli barcha jabhalari yuqoridan, ma‘muriy-buyruqbozlik asosida boshqarilgan. Respublikadagi mavjud teatrlarning repertuari sovet ideologiyasi va sotsialistik realizm qonuniyatlariga muvofiq kelishi, davrning ijtimoiy-mafkuraviy talablariga javob berishi lozim edi. “Xullas, boshqaruv har tomonlama izdan chiqqan, teatrlarda ijodiy muhit buzilib, an‘analar yo‘qolgan, parokanda ahvolga kelib qolgan bir zamonlar edi. Jamiyatdagi sarosimalik teatrlar repertuarida ham o‘z aksini topa boshladi. O‘sha davr kayfiyatini o‘ziga to‘liq singdirgan siyosiy-publitsistik xarakterdagi pyesalar butun sobiq ittifoq teatrlari bo‘ylab aylanib yurdi”[5]. Shunday murakkab davrda ijod qilgan bo‘lishiga qaramay, teatrlarimiz milliy va jahon dramaturgiyasining mumtoz namunalari muvaffaqiyatli sahnalashtirdi, o‘zbek sahnasining abadiyatga daxldor namunalari yaratildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng teatrlar boshqaruvini tizimli yo‘lga qo‘yish, ularning ijodiy faoliyatini milliy istiqloq g‘oyasi va qadriyatlarimizga hamohang tarzda shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. Ya‘ni, sovet tuzumi davridagi boshqaruvning ma‘muriy buyruqbozlik shaklidan voz kechish, boshqaruv mexanizmining yangi standart va mezonlarini joriy etishga alohida ahamiyat qaratildi. Albatta, bu jarayon oson kechmadi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san‘atning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyati kuchaytiriladi. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2024-yil 23-noyabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (2017-yil 3-avgustdagi mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) // “Xalq so‘zi”. 2017, 4-avgust.
3. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – B.146.
4. Abduvohidov F. O‘zbek teatrida marketing va menejment masalasi // “Xalqaro madaniyat va san‘at menejmenti: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2023-yil 21-iyun. B.82-83.
5. Rizayev O. “Sahnada zamon ruhi”. San‘atshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami 2024. B.12.